

**BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARDA TIRIK ORGANIZMLAR MAVZUSINI O'TISHDA ZAMONAVIY DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Urazova Guli Uringaliyevna**

*Urganch davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tirik organizmlar haqida tushunchasini, dunyoqarashini shakllantirish, ularning xilma-xilliklari va tabiat haqidagi ko'nikmalarini zamonaviy o'quv-didaktik vositalar orqali oshirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tirik organizmlar, tabiat, umurtqali hayvonlar, umurtqasiz hayvonlar, o'simliklar, metod.

Повышение эффективности урока посредством современных дидактических игр при прохождении темы живых организмов в начальной школе по естествознанию

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о формировании у младших школьников понимания, мировоззрения о живых организмах, совершенствовании их умений об их разнообразии и природе с помощью современных учебно-дидактических средств.

**Ключевые слова:** живые организмы, природа, позвоночные, беспозвоночные, растения, метод.

Improving the effectiveness of the lesson through modern didactic games when passing the topic of living organisms in the elementary school Natural Sciences

**Annotation.** This article will talk about the formation of an understanding, worldview of living organisms in primary school students, their diversity and skills about nature through modern educational and didactic means.

**Keywords:** living organisms, nature, vertebrates, invertebrates, plants, method.

**Kirish:** Ma'lumki, endilikda O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yillaridan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'z ichiga jamlagan Tabiiy fani joriy etildi. Tabiiy fanni ayni vaqtda o'qitilib kelinayotgan 1-2 sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika kimyo fanlarini o'z ichiga oladi. Bu fanni joriy etilishidan maqsad o'quvchilarni dunyoqarashini har tomonlama shakllantirishdan iborat.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi**


Oldingi o'quv darsliklarning mazmuni ko'pchilik qismi nazariyadan iborat edi. Hozirgi darsliklar esa tubdan o'zgargan, o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Ilmiy dunyoqarashlarini shakllantiradi, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ta'limdagi bunday o'zgarishlar tufayli o'quv dasturlar, o'quv adabiyotlar mazmuni ham o'zgardi. Tabiiy fanlardan ham PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollarni milliy bazasi tuzildi, darsliklarga kiritildi. Tabiiy fanni oldinda o'quv dasturlaridan yana bir farqi xalqaro ekspertlar ham borligidadir.

**Tadqiqot natijalari**

1-sinf Tabiiy fanining 2-bob O'simliklar bo'limiga 4 soat, 3-bob Hayvonlar bo'limiga 4 soat, 2-sinf darsligining 2-bob Tirik organizmlarning xilma-xilligi bo'limiga 7 soat, 3-bob Organizmlarning tuzulishi bo'limiga 3 soat, 3-sinfning 2-bob Tirik organizmlar bo'limiga 4 soat jami soat, 4-sinf 2-bob Tirik organizmlar bo'limiga 6 soat ajratilgan.

**Muhokama**

Barcha tirik organizmlar hujayralardan iborat. Tirik organizmlar turlari ko'p bo'lib, ular zamburug'lar, bakteriyalar, o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'linadi. O'simliklar dunyosi flora, hayvonot dunyosi fauna deb ataladi. Atrofimizdagi olam jonli va jonsiz tabiatga bo'linadi.




Jonli va jonsiz tabiat mavzusini tushuntirishda 1-sinf o'quvchilariga "Qarsak" metodidan foydalansak bo'ladi. Bunda jonli tabiat mavzusiga oid so'z aytilsa, bir qarsak chalishadi. Jonsiz tabiatga oid so'z aytilsa ikki qarsak chalinishi kerak. O'yin shu tarzda davom qilinadi.

Barcha tirik organizmlarning yashashi uchun oziqlanishi zarur. Quyidagi “Oziqa janjiri” metodi orqali o‘quvchilar mavzuni yanada yaxshi tushunib olishadi. Metod quyidagi tartibda bajariladi:

1. O‘qituvchi kartochkaga metod mzmuniga mos rasmlarni olib keladi;
2. Rasmlar tushurilgan kartochkalarining o‘rinlari almashtirilib, tartibsiz holatga keltiriladi;
3. O‘quvchilar kartochkalarni ketma-ketlikda joylashtirishi zarur;
4. Birgalikda tekshiriladi, muhokama qilinadi.

Masalan: Quyosh ta’sirida o‘simliklar ozuqlanadi. Chigirtka o‘simlik bilan, qurbaqa chigirtka bilan, ilon qurbaqa bilan, burgut esa ilon bilan oziqlanadi. O‘simliklar bilan hayvonlar oziq zanjiri orqali bog‘lanadi. 1-rasm (internet ma’lumoti)



1-rasm

Hayvonlar 2 turga bo‘linadi. Umurtqali va umurtqasiz. Umurtqali hayvonlarda ichki sklet va umurtqa pog‘onasi bo‘ladi. Umurtqasiz hayvonlarda esa bo‘lmaydi. Mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida “Besh barmoq” metodidan foydalansa bo‘ladi.



Metod 2. “ Besh barmoq” metodi. Bu metodni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarning mavzu yuzasidan qay darajada bilimlarga ega bo‘lganligini tekshirishdan iborat. Bu metodning bajarilish tartibi quyidagicha:

1. Dastlab 2-rasmdagiga o‘xshash qilib besh barmoq qirqib olinadi;
  2. Har bir barmoqqa mavzu yuzasidan savollar yoziladi;
  3. Noto‘g‘ri javob berilsa, o‘sha savol yozilgan barmog‘ini bukishi kerak;
  4. Nechta savolga javob bersa shuncha balni qo‘lga kiritadi.
- 2-rasm (internet ma‘lumoti)



2-rasm

Metod 3. 2-sinflar uchun “Mosini top” didaktik o‘yinidan foydalanilsa bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar mos jummalarni tutashtirishlari kerak.

Gul		Harakatlanadi, ammo o‘zgarmaydi
Daryo		Uchuvchi umrtqali hayvon
llon		Sahro kemasi
qushlar		Xushbo‘y hidli o‘simlik
tuya		Zaharli, xavfli hayvon

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga tirik organizmlar va jonsiz tabiatning bir-biriga bog'liqligi, tirik organizmlarning jonsiz tabiatdan farqlanishini o'rganishda didaktik o'yinlar yaxshi samara beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- ★ Tabiiy fanlar [Matn]: 3-sinfi uchun darslik/ Z. Sangirova [va boshq.]-Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2022.-14-15 b.
- ★ Internet ma'lumoti: <https://kun.uz/uz/56634215>.